

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Samarqand filialining  
2026-yil 13-apreldagi  
87-son buyrug‘iga  
11-ilova

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Samarqand filialida davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-  
taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida (keyingi o‘rinlarda – Filial deb yuritiladi) tanlov (tender) o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasining (keyingi o‘rinlarda “Xarid komissiyasi” deb yuritiladi) vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan holatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibda amalga oshiriladi.

2. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari g‘olibini tanlash to‘g‘risidagi qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan kollegial organdir.

Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni (g‘oliblarni) tanlashdan iborat.

3. Xarid komissiyasi doimiy faoliyat ko‘rsatadi hamda Filialning tegishli buyrug‘i bilan shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

4. Xarid komissiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, boshqa qonun hujjatlari, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali nizom, direktor buyruqlari, topshiriqlari hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

5. Xarid qilish tartib-taomillari:

xaridlar xo‘jalik faoliyati doirasida o‘tkazilganda Xarid komissiyasi davlat buyurtmachisining vakillari orasidan, zarur bo‘lgan taqdirda ovoz berish huquqiga ega ekspertlarni jalb etgan holda shakllantiriladi;

loyiha ayrim faoliyatlar doirasida o‘tkazilganda Xarid komissiyasi vazifalarini belgilangan tartibda tashkil etiladigan “loyihani amalga oshiruvchi guruh” bajaradi, xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazish natijalari to‘g‘risida qarorlar qabul qilinadi.

**2-bob. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari**

6. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

tanlov (tender) hujjatlarini kelishish;

takliflar qabul qilinadigan muddatlarni belgilash;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini belgilash va unga asosan baholash;

taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilash;  
xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochish; malaka tanlovini o'tkazish, agar tanlov (tender) hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;  
xarid qilish tartib-taomillarini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;  
xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari, ijrochisi va zaxira ijrochisini belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

Xarid komissiyasi qonun hujjatlari va ushbu Nizom talablaridan kelib chiqib boshqa vazifalarni xam bajarishi mumkin.

7. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlarni o'rganadi:

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining ta'sis hujjatlari va shartnoma tuzish vakolatini tahlil qiladi;

soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligini tekshiradi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilmaganligini o'rganadi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi haqida Insofsiz ijrochilar yagona reyestrda yozuv mavjud emasligini aniqlaydi;

axborotlarning ochiq manbalarida ehtimoli bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida ma'lumotlar mavjud emasligi aniqlaydi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining rasmiy veb-saytidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi; Filialning xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bilan o'zaro hamkorligi tarixini o'rganadi; xarid ishtirokchilarida shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlarga oid va boshqa resurslar mavjudligini tahlil qiladi.

manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi o'rganadi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida ma'lumotlarni o'rganadi;

korrupsiyaga qarshi hujjatlarini tekshiradi (taqdim etilgan yoki saytdagi) (agar mavjud bo'lsa).

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish Filialda davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo'yicha yo'riqnomagaga asosan amalga oshiriladi.

### **3-bob. Xarid komissiyasi ishini tashkil qilish**

8. Davlat xaridlarini tanlov (tender) orqali amalga oshirish jarayonida kamida 5 (besh) nafar a'zodan iborat tarkibda komissiya tuziladi.

Qonunchilikda boshqacha holatlar nazarda tutilmagan bo'lmasa, Xarid komissiyasining tarkibi boshqaruv xodimlaridan tashkil etiladi.

9. Xarid komissiyasi toq sonli a'zodan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

10. Qiymati bazaviy hisoblash miqdorining besh ming baravaridan ortiq miqdordagi davlat xaridlari o'tkazilganda xarid komissiyasi tarkibiga davlat buyurtmachisining vakillaridan tashqari O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Uz injiniring" respublika loyihalashtirish institutining vakillari kiritiladi.

11. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u Xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va Xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi.

Tanlov (tender) o'tkazish jarayoni Xarid komissiyasi raisi yoki kelishuvga ko'ra rais o'rinbosarlaridan birining rahbarligida va ishtirokida o'tkazilishi mumkin.

Xarid komissiyasiga Raislik qiluvchi quyidagi vakolatlarga ega:

Xarid komissiyasi majlislarini chaqirish va majlis kun tartibini belgilash;

Xarid komissiyasi qabul qilgan qarorlar bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish;

Xarid komissiya a'zolari tomonidan o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalar bajarilishini muvofiqlashtirish;

Xarid komissiya a'zolari faoliyatini nazorat qilish;

Xarid komissiyasi samarali ishlashi uchun zarur bo'ladigan boshqa choralarni ko'rish.

12. Xarid komissiyasining majlisini rais yoki kelishuvga ko'ra uning o'rinbosari olib boradi. Xarid komissiyaning yig'ilishi uning a'zolarining kamida yarmi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

13. Xarid komissiyasining ishchi organi vazifasini:

7-bandning ikkinchi-o'n birinchi xatboshilarida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha - Ishlar boshqarmasi;

7-bandning o'n ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha – Xodimlar bo'limi, Ichki audit, moliyaviy va komplayens nazoratni amalga oshirish boshqarmasi;

7-bandning o'n uchinchi va o'n to'rtinchi xatboshilarida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha - Xarid komissiyasining kotibi amalga oshiradi.

14. Xarid komissiyasining tezkor faoliyati uning ovoz berish huquqiga ega a'zosi bo'lgan mas'ul kotib tomonidan tashkil qilinadi.

15. Muayyan bir davlat xaridini amalga oshirish Xarid komissiyasi a'zolarida davlat xaridi ishtirokchisi bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlangan taqdirda, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

16. Mazkur Nizomning 15-bandida ko'rsatilgan shaxslarni Xarid komissiyasi tarkibiga kiritilishini oldini olish Xarid komissiyasi a'zolarini rad qilish va o'zini o'zi rad qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

17. Mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan shaxslar Xarid komissiyasi tarkibiga kiritilganligi aniqlanganda Komissiya raisi bunday shaxsni muayyan xaridni o'tkazgunga qadar rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Komissiya a'zosini rad etish haqidagi qaror yozma shaklda rasmiylashtiriladi va rad etishga asos bo'luvchi holatlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim.

18. Ushbu Nizomning 17-bandida nazarda tutilgan qaror qabul qilingan taqdirda, shuningdek Xarid komissiyasi a'zosi o'zini o'zi rad qilingan taqdirda yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Komissiya a'zosi ma'lum xaridlar bo'yicha Komissiya yig'ilishlarida qatnashishga haqli emas.

19. Xarid komissiyasi a'zolarida ishtirokchilar bilan shaxsiy manfaatli aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'tarilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

#### **4-bob. Xarid komissiyasi va a'zolarining huquq va majburiyatlari**

21. Xarid komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

a) tanlov ishtirokchisidan uning malakaviy talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjat shaklida taqdim etilishini talab qilish;

b) o'z qarori bilan quyidagilarga asosan tanlov (tender) ishtirokchilarini tanlovda (tenderda) ishtirok etishni davom ettirishdan chetlatish va ularning takliflarini ko'rib chiqishni davom ettirmasdan qaytarib berishi mumkin:

Insofsiz ijrochilar yagona reyestrda tanlov ishtirokchilari haqidagi yozuvlar aniqlanganda; tanlov ishtirokchilarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzi mavjudligi aniqlanganda;

agar tanlov ishtirokchisida qonunchilikni buzadigan tarzda adolatsiz raqobat ustunligi yoki manfaatlar to'qnashuvi bo'lganda;

v) xarid tashabbuskori, tashkilotchisi, ixtisoslashtirilgan tashkilotdan ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha har qanday ma'lumot va hujjatlarni so'rab olish;

g) tegishli organlar va tashkilotlardan xarid ishtirokchilarining xarid haqidagi hujjatlarda

belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rab olish;

d) tender/tanlov ishtirokchilariga u yoki bu taklifni rad etish sabablarini tushuntirib berish. Bunda takliflarning narx va ishlarni bajarish muddati bilan birga mazmunini o'zgartiradigan tushuntirishlar berilishiga yul qo'yilmaydi.

22. Xarid komissiyasining a'zolari quyidagilarga majbur:

uzrli holatlardan (vaqtincha mehnatga layoqasizlik, xizmat safari va boshqa sabablar) tashqari Xarid komissiyasining majlislarida shaxsan ishtirok etish;

qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq xaridlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish tartib-taomillariga rioya qilish;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarini tekshirish bo'yicha zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish;

agar tanlov ishtirokchisi tomonidan biron-bir harakatni sodir etishga, qaror qabul qilishga yoki tanlov savdolarini o'tkazish jarayonida buyurtmachining muayyan bir xarid qilish tartib-taomilini o'tkazishga ta'sir qilish maqsadida buyurtmachining hozirgi yoki avvalgi xodimiga yoki Xarid komissiyasining a'zosi har qanday ko'rinishdagi mukofotni, ishga qabul qilish haqida taklif yoki qimmatbaho ashyo yoxud xizmatni taqdim qilsa yoki taqdim qilishga rozilik berganda, bevosita yoki bilvosita taklif qilganda darhol Xarid komissiyasi raisiga hamda korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" sho'basiga xabar berish;

tanlov ishtirokchisi takliflarida O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan talablarning, savdo ob'yektining tanlov hujjatlarida qayd etilgan shartlarning buzilishi aniqlanganda yoki tanlov ishtirokchisi qayta tashkil etish (ajratish, qo'shish), tugatish yoki bankrotlik (mol-mulkini xatlash) jarayonida bo'lganda, shuningdek, noto'g'ri axborot taqdim etilganda ishtirokchini tanlovdan chetlashtirish choralarini ko'rish;

komissiya a'zosi - ta'sis hujjatlari, moliyaviy jihatdan qatnashish, xolding yoki boshqacha shaklda tanlov ishtirokchilari bir-biriga tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy jihatdan bog'liq bo'lganda o'zini o'zi rad etish;

o'z vakolati doirasida xolisona qarorlar qabul qilish.

23. Xarid komissiyasi kotibi tashkiliy-texnik tavsifdagi funksiyalarni bajaradi, jumladan, Komissiya a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnomalarni yuritadi, Komissiya a'zolariga Xarid komissiyasining navbatdagi majlisi haqida avvaldan xabar beradi, mazkur Nizomning 7-bandida belgilangan hollarda mavjudligi yoki mavjud emasligini o'rganadi va bu haqda komissiya yig'ilishida ma'lum qiladi.

Xarid komissiyasi majlisida Xarid komissiyasi kotibi ishtirok eta olmaganda uning funksiyalarini Xarid komissiyasi raisi tomonidan tayinlangan Xarid komissiyasi majlisida hozir bo'lgan a'zolaridan biri bajaradi.

24. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.

### **5-bob. Xarid komissiyasi ishini tashkil etish**

25. Xarid komissiyasi o'tkazilayotgan tanlov (tender) savdosi doirasida tanlovga (tender) oid takliflarni tayyorlash muddati haqida qaror qabul qiladi va takliflarni qabul qilishning so'nggi muddatini belgilaydi. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Bunda takliflarni tayyorlash muddati maxsus axborot portalida va boshqa ommaviy axborot vositalarida birinchi e'lon berilgandan paytdan boshlab o'n kundan kam bo'lmasligi kerak.

26. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan tanlovga oid takliflarni kiritish tartibini, hajmini va kafolat turini (zakalat yoki bank kafolati) belgilaydi.

27. Majlis o'tkazilgan sanada bir davlat xaridi bo'yicha qiymati bazaviy hisoblash miqdorining besh ming baravaridan kam miqdordagi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi bo'yicha Xarid komissiyasining qarorlari Xarid komissiyasining sirdan o'tkaziladigan

majlisida, qiymati bazaviy hisoblash miqdorining besh ming baravaridan ortiq miqdordagi davlat xaridi bo'yicha xarid komissiyasining qarorlari esa Xarid komissiyasining faqat yuzma-yuz majlisida qabul qilinishi mumkin.

28. Xarid komissiyasi ishtirokchilarga tanlovda qatnashishga ruxsat berish haqidagi masalani hal qilish maqsadida ular tomonidan taqdim etilgan materiallar asosida ishtirokchilarning malakaviy tanlovini o'tkazadi.

Bunda quyidagi ishtirokchilarning tanlovda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi va bu haqda tegishli qaror qabul qilinadi:

Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida bo'lgan;

OTM bilan sud yoki arbitraj orqali nizolashayotgan;

Insofsiz ijrochilar yagona reyestrda bo'lgan;

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzi bo'lgan;

Xarid komissiyasining boshqa tijorat va moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha talablariga javob bermaydiganlar.

29. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflar bo'lgan konvertlarni ochish, ularni ko'rib chiqish va maxfiylikka rioya qilingan holda saqlash belgilangan tartibda amalga oshiradi.

30. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflar bo'lgan konvertlarni ochish vaqti va joyini belgilaydi. Tanlovga oid takliflar bo'lgan konvertlarni ochish Xarid komissiyasi majlisining o'zida kollegial tarzda amalga oshiriladi.

31. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni ko'rib chiqish muddatini belgilaydi. Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytdan boshlab o'n kundan oshishi mumkin emas.

32. Xarid komissiyasining majlislari yuzma-yuz yoki sirdan (so'rov orqali, barchaning ishtirokisiz) o'tkazilishi mumkin. Yuzma-yuz majlislar konferensiyalar (videokonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi mumkin.

33. Xarid komissiyasi kelib tushgan takliflarni to'g'ri kelishini batafsil o'rganish va xulosa tayyorlash maqsadida Xarid komissiyasi a'zolari, OTM mutaxassislari orasidan ishchi guruh tuzishi mumkin, shuningdek, zarurat bo'lganda manfaatdor Vazirlik va idoralarning mutaxassislari jalb qilishi mumkin. Komissiya tanlovga oid takliflarni baholash uchun ekspert va maslahat beruvchi tashkilotlar vakillarini jalb qilishi mumkin.

34. Xarid komissiyasi tanlov savdosi g'olibi va zaxiradagi ishtirokchilar, shartnomani imzolash muddatlari haqida qaror qabul qiladi.

35. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni baholashni va Xarid komissiyasi tomonidan o'rnatilgan mezonlar asosida g'oliblarni aniqlashni amalga oshiradi. Taqdim etilgan tanlovga oid takliflarning qo'shimcha texnik, tashkiliy va tijorat ustunligi, shuningdek, tanlov ishtirokchisining nufuzi inobatga olinishi mumkin.

36. Xarid komissiyasi taqdim etilgan konvertlarning butunligi va saqlanganligini tasdiqlash va tanlov savdosini o'tkazish tartib-taomilining shaffofligini ta'minlash maqsadida konvertlarni ochish jarayonida tanlov ishtirokchilari vakillarining hozir bo'lishi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

37. Xarid komissiyasining barcha qarorlari Xarid komissiyasi majlislarida Xarid komissiyasi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolganida Xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi bo'ladi.

38. Xarid komissiyasining barcha majlislari va qabul qiladigan qarorlari bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomalar Xarid komissiyasining hozir bo'lgan a'zolari tomonidan imzolanishi va Xarid komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Bayonnomalar Xarid komissiyasi kotibi tomonidan imzolanmasligi, bayonnomaning haqiqiy emas deb topilishiga olib keladi.

39. Xarid komissiyasining har bir a'zosi Xarid komissiyasining ish jarayonida qaror qabul qilishi shart, qaror qabul qilishda betaraf bo'lishga yul qo'yilmaydi. Ovoz berish ochiq tarzda amalga oshiriladi. Yashirin tarzda ovoz berish va Xarid komissiyasining a'zolari tomonidan o'z vakolatlarini

boshqa shaxslarga berishlariga yul qo'yilmaydi.

40. Xarid komissiyasi majlislarida tanaffuslarga yul quyiladi. Xarid komissiyasi majlisini bir kun davomida ko'chirish tanaffus bo'lib hisoblanadi. Xaridlarning ommaviy tartib-taomilini o'tkazishda tanaffus e'lon qilishga faqat xaridlar lotlari orasida yul quyiladi.

41. Yengib bo'lmas kuch holatlaridan tashqari Xarid komissiyasi majlisining muddatini boshqa kunga o'tkazishga yul qo'yilmaydi.

42. Xarid komissiyasi quyidagi hollarda tanlovni o'tmagan deb topadi:  
tanlovda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki birona ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda;  
takliflarni taqdim etish muddati tugaydigan kunga kelib tanlov ishtirokchilaridan ikkitadan kam takliflar kelib tushgan bo'lsa;  
kelib tushgan takliflar savdo ob'yektining tanlov hujjatlari shartlariga javob bermasa;  
tanlov ishtirokchilari tomonidan taklif etilgan narxlar tanlov savdolarining eng yuqori bahosidan oshib ketsa.

### **6-bob. Xarid komissiyasining javobgarligi**

43. Xarid komissiyasi ijrochini aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi tomonidan qabul qiladigan quyidagi qarorlarning asoslantirilganligi va xolisligiga, jumladan:

tanlov ishtirokchilari intellektual mulkining daxlsizligi yoki tijorat siriga bo'lgan huquqi buzilganligi;

tanlov ishtirokchilarini tanlovni o'tkazish tartib-taomillarida qatnashishdan asossiz chetlatganlik;

yopiq ahamiyatga ega bo'lgan tartib-taomilga oid masalalar natijalarini ochiq muhokama qilganlik va ko'rib chiqqanlik, maxfiy axborotni oshkor qilganlik, tanlov ishtirokchilari yoki jalb etilgan mutaxassislar bilan til biriktirganlik, shuningdek, boshqa g'ayrihuquqiy harakatlarni sodir etganlik;

Xarid komissiyasining ochiq majlisida tanlov g'olibini aniqlaganlik, tanlov g'olibini e'lon qilish tartib-taomilini buzganlik, hozir bo'lmagan tanlov ishtirokchilariga o'z vaqtida xabar bermaganlik uchun javobgar hisoblanadi.

44. Xarid komissiyasi tanlov (tender) g'olibini ishtirokchilar orasidan aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asoslilik va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

45. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa sub'yektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

### **7-bob. Yakuniy qoidalar**

46. Qonunlar va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarning buzilishida aybdor bo'lgan xarid komissiyasi a'zolari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.